

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI

DSc.03/2025.27.12.I.23.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

Qo'lyozma huquqida

UO'K: 336.713:004(575.1)

UTKUROV JAVOXIRXON BAXODIR O'G'LI

**TIJORAT BANKLARIDA MASOFAVIY BANK XIZMATLARI
OMMABOPLIGINI OSHIRISH YO'LLARI**

08.00.07 – «Moliya, pul muomalasi va kredit»

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan

DISSERTATSIYA

**Ilmiy rahbar: iqtisod fanlari doktori, dotsent
Hoshimov Jahongir Ravshanbek o'g'li**

TOSHKENT-2025

M U N D A R I J A

I BOB	TIJORAT BANKLARIDA MASOFAVIY BANK XIZMATLARINI TASHKIL ETISHNING IQTISODIY-NAZARIY ASOSLARI	11
1.1.	Tijorat banklarida masofaviy bank xizmatlari vujudga kelishining nazariy asoslari	11
1.2.	Masofaviy bank xizmatlari tizimining turlari va xususiyatlari	30
1.3.	O'zbekiston bank tizimida masofaviy bank xizmatlarini tashkil etishning normativ-huquqiy asoslari	44
	1-bob bo'yicha xulosalar	52
II BOB	O'ZBEKISTON BANK TIZIMIDA MASOFAVIY BANK XIZMATLARIDAN FOYDALANISH AMALIYOTI TAHLILI	54
2.1.	Tijorat banklarida masofaviy bank xizmatlarini tashkil qilishning iqtisodiy va moliyaviy shart-sharoitlari tahlili	54
2.2.	Bank tizimida masofaviy bank xizmatlari amaliyotining tahlili	64
2.3.	Masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillarning ekonometrik tahlili	76
	2-bob bo'yicha xulosalar	89
III BOB	TIJORAT BANKLARIDA MASOFAVIY BANK XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	91
3.1.	Masofaviy bank xizmatlarini samarali rivojlantirishda rivojlangan mamlakatlarning tajribasidan foydalanish	91
3.2.	Tijorat banklarida masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirishdagi muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari	106
3.3.	Tijorat banklarida masofaviy bank xizmatlar ommabopligini oshirish yo'llari	117
	3-bob bo'yicha xulosalar	126
	XULOSA	128
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	131

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiyotida bank sohasi raqamli transformatsiya jarayonida faol ishtirok etmoqda. Mobil va internet banking xizmatlari ko‘plab mamlakatlarda aholi va tadbirkorlik sub’ektlari uchun moliyaviy xizmatlarning negiziy kanallaridan biriga aylanmoqda. Masofaviy bank xizmatlari orqali mijozlar vaqt va joy cheklovlarisiz operatsiyalarni amalga oshirishi, banklar esa operatsion xarajatlarni qisqartirishi mumkin. Bundan tashqari, raqamli xizmatlar moliyaviy inklyuziya darajasini oshirish, naqd pulga bo‘lgan talabni kamaytirish hamda ich-ki jarayonlarni avtomatlashtirish orqali banklar uchun qo‘shimcha imkoniyatlar yaratadi. Jahon banki malumotlarga ko‘ra, 2025 yilda dunyoda taxminan 3,6 milliard kishi raqamli bank xizmatlaridan foydalanmoqda¹. Shu bilan birga, 2026 yilgacha global aholining 53 foizgacha raqamli banking xizmatlaridan foydalanishi kutilmoqda. Bu raqamlar banklar uchun raqamli yo‘nalishda xizmat ko‘rsatishni yanada kenglashtirish zarurligini ko‘rsatmoqda.

Jahon amaliyotida tijorat banklari faoliyatida zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va raqamli bank xizmatlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Masofaviy bank xizmatlari, ya’ni internet-banking, mobil banking va elektron to‘lov tizimlari, mijozlar uchun qulaylik va samaradorlikni oshirishda muhim vosita hisoblanadi. Ushbu xizmatlar orqali mijozlar bank muassasasiga bormasdan, uydan yoki ish joyidan turib, hisob-kitoblar amalga oshirish, mablag‘larni o‘tkazish, kredit va depozit operatsiyalarini bajarish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Masofaviy bank xizmatlarini keng joriy qilgan banklar mijozlar bilan aloqalarni mustahkamlaydi, xarajatlarni qisqartirib, raqobatbardoshligini oshiradi. Banklar uchun masofaviy bank xizmatlarini innovatsion va texnologik jihatdan rivojlantirish borasida kompleks ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borishni taqozo etmoqda.

O‘zbekistonda kambag‘allikni qisqartirish davlat siyosatining ustuvor

¹ <https://www.worldbank.org/ext/en/home>

yoʻnalishi sifatida belgilanib, yangi ish oʻrinlari va kafolatli daromad manbaini yaratishda banklar tomonidan jismoniy shaxslarni kreditlashga eʼtibor qaratilmoqda. Xususan, «...aholi va kichik biznes uchun masofaviy xizmatlarni keng joriy qilish, kamxarj xizmat koʻrsatish nuqtalari tarmogʻini rivojlantirish, shuningdek, respublika yagona moliya tizimining oʻzaro toʻldiruvchi qismi sifatida nobank kredit tashkilotlari shakllanishi va rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish orqali moliyaviy xizmatlar ommabopligi va sifatini oshirish»² muhim yoʻnalishlardan biri sifatida belgilab berilgan. Mazkur vazifa ijrosini taʼminlashda jismoniy shaxslar, yakka tartibdagi tadbirkorlarni kreditlash tartibini yanada soddalashtirish, imtiyozli kreditlash yoʻli bilan qoʻllab-quvvatlash chora-tadbirlarini kuchaytirishga qaratilgan taklif va tavsiyalarni asoslash, banklar tomonidan jismoniy shaxslarga beriladigan kreditlarning samaradorligini oshirish hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

Oʻzbekiston Respublikasining «Banklar va bank faoliyati toʻgʻrisida»gi (2019 y.), «Isteʼmol krediti toʻgʻrisida»gi (2005 y.), «Ipoteka toʻgʻrisida»gi (2006 y.) qonunlari, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida»gi, 2021 yil 4 iyundagi PF-6241-son «Aholini ijtimoiy qoʻllab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida»gi, 2022 yil 28 yanvardagi PF-58-son «Aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj toifalarini moddiy qoʻllab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish toʻgʻrisida»gi, 2020 yil 12 maydagi PF-5992-son «2020-2025 yillarga moʻljallangan Oʻzbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi toʻgʻrisida»gi farmonlari, 2018 yil 23 martdagi PQ-3620-son «Bank xizmatlari ommabopligini oshirish boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida»gi, 2017 yil 12 sentyabrdagi PQ-3270-son «Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida»gi, 2018 yil 21 dekabrdagi PQ-4071 son «Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini taʼminlash, faoliyati samaradorligini oshirish va kredit siyosatini takomillashtirish

² Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 maydagi PF-5992-son «2020-2025 yillarga moʻljallangan Oʻzbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi toʻgʻrisida»gi farmoni // Qonun hujjatlari maʼlumotlari milliy bazasi, 13.05.2020 y., 10.06.2022 y., 06/22/152/0507-son.